

# 0‘zbekiston va Qoraqalpog‘iston xalq artisti Xayrulla Lutfullayev 80 yoshda

Shu yilning 25-oktabr kuni O‘zbekiston davlat san‘at va madaniyat instituti rektori, professor Nodirbek Sayfullayev boshchiligida O‘zbekiston va Qoraqalpog‘iston xalq artisti, “O‘zbekiston Respublikasida xizmat ko‘rsatgan yoshlar murabbiysi”, “Milliy qo‘shiqchilik” kafedrası professori Xayrulla Lutfullayev xonadonida bo‘lishdi.



Uchrashuv samimiy va iliq ruhda o‘tdi. Institut rektori Nodirbek Sayfullayev ustoz san‘atkorni 80 yoshga to‘lgan qutlug‘ ayyomi bilan chin dildan muborakbod etib, unga sihat-salomatlik, bardavom ijod va yangi avlodni tarbiyalashdagi faoliyatida ulkan muvaffaqiyatlar tiladi.



Tabrik davomida Xayrulla Lutfullayevning O'zbekiston san'at maktabi rivojiga qo'shgan beqiyos hissasi, yosh iste'dodlarni qo'llab-quvvatlashdagi fidokorona mehnati, o'ziga xos ijro maktabi va pedagogik faoliyati e'tirof etildi.

Institut jamoasi nomidan ustozga esdalik sovg'alari topshirilib, shogirdlari, hamkasblari va izdoshlari nomidan samimiy tilaklar bildirildi.

Shuningdek, N.Sayfullayev o'z so'zida Xayrulla Lutfullayevning yo'nalishida yaratgan ijodiy merosi nafaqat institut balki, milliy qo'shiqchiligimiz uchun bebaho boylik ekanini ta'kidladi.



Ustozning milliy an'analarimizni asrab-avaylash va yosh avlod qalbida san'atga mehr uyg'otish borasidagi xizmatlari alohida e'tirofqa sazovor ekani qayd etildi.

Ma'lumot uchun: O'zbekiston Respublikasi Madaniyat vazirligi tomonidan O'zbekiston va Qoraqalpog'iston xalq artisti, "O'zbekiston Respublikasida xizmat ko'rsatgan yoshlar murabbiysi", professor Xayrulla Lutfullayevning 80 yilligiga bag'ishlangan ijodiy kecha joriy yilning 20-noyabr kuni Turkiston san'at saroyida o'tkazilishi rejalashtirilgan.

Hozirda mazkur tantanaga qizg'in tayyorgarlik ishlari olib borilmoqda, jumladan, konsert dasturi, videolavhalar, fotoko'rgazmalar hamda ustozning ijodiy faoliyatini yorituvchi maxsus ko'rsatuvlar tayyorlanmoqda.

Xususan O'zbekiston davlat san'at va madaniyat instituti tomonidan Xayrulla Lutfullayev hayoti va faoliyatiga bag'ishlangan xujjatli film tayyorlanmoqda.

Mazkur tadbir san'at ahli, ustoz-shogirdlar, talabalar hamda

ustozning muxlislari uchun katta madaniy voqea bo'lishi kutilmoqda.

---

## **“O‘zbekfilm” kinokonsernidagi institutning ikkita kafedrasining filiallarining tantanali ochilishi bo‘lib o‘tdi**

Bugun “O‘zbekfilm” kinokonsernidagi O‘zbekiston davlat san‘at va madaniyat institutining “Ovoz rejissyorligi va operatorlik mahorati” hamda “Kino, televideniye va radio rejissyorligi” kafedralari filiallarining tantanali ochilishi bo‘lib o‘tdi. Unda Kinematografiya agentligi Bosh direktori, „Do‘stlik“ ordeni sohibi, „O‘zbekistonda xizmat ko‘rsatgan yoshlar murabbiyi“ Shuxratilla Rizayev, O‘zbekiston davlat san‘at va madaniyat instituti rektori, professor Nodirbek Sayfullayev, O‘zbekfilm” kinokonserni direktori Baxodir Muxamedov, shuningdek, taniqli kino rejissyorlar, operatorlar, talabalar hamda OAV vakillari ishtirok etdilar.



– Bugungi hamkorlik O‘zbekiston davlat san‘at va madaniyat instituti hamda Kinematografiya uchun muhim qadamdir. Institutning ushbu kafedralar filiallarini tashkil qilinishi, milliy kino san‘atimizda yangi kadrlarni kashf etishda yana bir muhim qadamlardan biri bo‘lmoqda, deydi- Shuxratilla Rizayev.



Shuningdek, u o'z so'zida "DUAL" ta'limning yo'lga qo'yilishi, bunday hamkorlik kinematografiyaning yangi avlodini shakllantirish sari olib borilayotgan oqilona say-harakatlardan ekanini aytdi. Bu loyiha ilm-fan, ijod va texnologiyani birlashtirishga, xalqaro talab darajasida mutahassis kadrlar tayyorlashga xizmat qilishini ta'kidladi.

Rektor Nodirbek Sayfullayev so'nggi yillarda institutda amalga oshirilayotgan islohotlar, ularning ta'lim sifati va ijodiy jarayonga bo'lgan ijobiy ta'siri haqida so'z yuritarkan, jumladan shunday dedi:

–Bizning asosiy maqsadimiz – talabalarga nafaqat nazariy bilim berish, balki ularni bevosita sahna, ekran va madaniyat muassasalarida amaliy faoliyatga jalb etishdir ya'ni ishlab chiqarish bilan ta'lim intigratsiyasi uyg'unligini ta'minlash. Bugun "O'zbekfilm" kinokonsernida ikki yangi kafedra filialining ochilishi– shu yo'nalishdagi say-harakatlarimizning mantiqiy davomidir.




Shuningdek, u mazkur tashabbus yosh mutaxassislarning malakasini oshirish, ularni zamonaviy texnologiyalar asosida o'qitish, milliy kino va teatr san'atini yangi bosqichga olib chiqish imkonini berishini ta'kidladi.

Rektor yangi filiallar faoliyatiga muvaffaqiyat tilab, bu ishlar avvalohurmatli Yurtboshimiz tomonidan boshqa sohalarqatorida ta'limga, shuningdek, san'at va madaniyatga qaratayotgan muhim e'tibori natijasi ekanligini alohida ta'kidladi.



Baxodir Muxamedov tadbir davomida soʻzga chiqib, “Oʻzbekfilm” kinokonserni negizida ochilgan kafedra filiallari yosh ijodkorlar uchun beqiyos imkoniyatlar eshigini ochishi, talabalar endilikda oʻz bilimlarini amaliyot jarayonida, haqiqiy ijodiy muhitda mustahkamlashini aytib oʻtdi. Uning taʼkidlashicha bu hamkorlik kelajakda milliy kinomiz taraqqiyoti uchun yangi avlod professional mutaxassislarini yetishtirishda muhim oʻrin tutadi.



Shundan so'ng ishtirokchilar "O'zbekfilm" kinokonsernida kafedra filiali uchun tashkil etilgan xona bilan tanishdilar. Bu yerda bo'lib o'tgan uchrashuv davomida O'zbekistonda xizmat ko'rsatgan san'at arbobi Abdurahim Ismoilov, taniqli

kinorejissyorlar O'zbekistonda xizmat ko'rsatgan madaniyat xodimlari Jahongir Qosimov hamda Hilol Nasimov, kinoshunos, san'atshunoslik fanlari nomzodi, dotsent Oybek Kopadze, oliy toifali operator Azizbek Arzikulovlar mazkur tashabbusni qo'llab-quvvatlashar ekan, bu boradagi samimiya fikrlari bilan o'rtoqlashdi.

Ikki ijodiy tashkilot ishlariga muvaffaqiyatlar tilashdi.





Qizg'in kechgan ijodiy suhbatlar so'ngida O'zbekiston davlat san'at va madaniyat instituti va "O'zbekfilm" kinokonserni o'rtasida memorandum imzolandi.

---

## **Moskva viloyatida «O'zbekiston va Rossiya hamkorligining madaniy- gumanitar qirrasini» panel sessiyasi bo'lib o'tdi**

21- 23 oktabr kunlari Moskva viloyatida o'tkazilgan O'zbekiston va Rossiya hududlararo kengashining II-yig'ilishi

tadbirlari doirasida «O'zbekiston va Rossiya hamkorligining madaniy- gumanitar qirrasini» panel sessiyasi bo'lib o'tdi.



Unda Madaniyat vazirining birinchi o'rinbosari Avazxon Tadjixanov rahbarlagidagi delegatsiya tarkibida O'zbekiston davlat san'at va madaniyat instituti rektori, professor Nodirbek Sayfullayev ham ishtirok etdi.



Rektor sessiyada «Madaniy ta'lim sohadagi O'zbekiston va Rossiya aloqalarining hozirgi holati va rivojlanish istiqbollari» mavzusida ma'ruza qildi. Safar davomida Rossiya Federatsiyasi madaniyat vaziri

o'rinbosari Andrey Malishev va Rossiya teatr san'ati instituti – GITIS rektori Grigoriy Zaslavskiy bilan uchrashuv o'tkazildi.



Shuningdek, Moskva shahrida joylashgan G'alaba muzeyi hamda VDNXning «O'zbekiston» paviloni ekspozitsiyalari bilan tanishildi.

---

**“Jaholatga qarshi – ma’rifat bilan kurash” mavzusida davra**

# suhbati tashkil etildi

Sir emaski bugungi kunda yoshlar mislsiz hajmdagi ma'lumotlar oqimiga duch kelmoqda. Internet va ijtimoiy tarmoqlar orqali ularga turli xil fikrlar, g'oyalar va qarashlar yetkazilmoqda. Afsuski, ushbu axborotlar orasida jamiyatimiz mentalitetiga yot bo'lgan, zararli va hatto yoshlar ongiga tahdid solishi mumkin bo'lgan g'oyalar ham uchraydi.

Shu bois yoshlarni turli buzg'unchi oqimlar va yot mafkuralardan asrash, ularni to'g'ri yo'lga yetaklash jamiyat oldidagi eng muhim vazifalardan biri hisoblanadi.



Ana shunday dolzarb masalalar yuzasidan bugun O'zbekiston davlat san'at va madaniyat institutida "Jaholatga qarshi – ma'rifat bilan kurash" mavzusida davra suhbatini tashkil etildi.

Tadbirda O'zbekiston xalqaro islomshunoslik akademiyasi dotsenti Mirodil Haydarov, Ijtimoiy-ma'naviy muhit

barqarorligini ta'minlash bo'yicha rektor maslahatchisi Alisher Ischanov hamda Yoshlar bilan ishlash, ma'naviyat va ma'rifat bo'limi boshlig'i Jahongir Karimovlar ishtirok etdi.



Uchrashuv davomida Mirodil Haydarov bugungi axborot texnologiyalari yuksak sur'atlarda rivojlanayotgan bir davrda axborotni saralash madaniyati, yolg'on va soxta xabarlarni aniqlash, ularni ishonchli manbalardan tekshirish kabi masalalar haqida atroflicha fikr yuritdi.

U ta'kidlaganidek, ayniqsa diniy ma'lumotlarni olishda har bir yosh rasmiy va ishonchli sahifalarga murojaat qilishi zarur. Zero, noto'g'ri manbadan olingan birgina ma'lumot ham inson tafakkuriga salbiy ta'sir ko'rsatishi mumkin.

Suhbat davomida talabalarning qiziqtirgan savollariga batafsil javoblar berildi.



Tadbir yoshlar ongida ma'rifat, tanqidiy fikrlash va mustaqil xulosa chiqarish ko'nikmalarini mustahkamlashga xizmat qildi.

---

## **“Yangi davr estrada san’ati: ma’naviy, badiiy, ta’limiy kontekstda” mavzusida respublika ilmiy-amaliy anjumani**

O‘zbekiston davlat san’at va madaniyat institutida “Estrada va ommaviy tomoshalar san’ati” kafedrasi tomonidan “Yangi davr estrada san’ati: ma’naviy, badiiy, ta’limiy kontekstda” mavzusida respublika ilmiy-amaliy anjumani bo‘lib o‘tdi.

Yangi O‘zbekistonning madaniy taraqqiyotida estrada san’atining ma’naviy, badiiy va ta’limiy aspektlarini tadqiq

va tahlil etish, estrada aktyorligi san'ati, ommaviy bayram va tomoshalar rejissurasi bo'yicha yuqori malakali kadrlar tayyorlash jarayonini tubdan isloh etishga qaratilgan nazariy va amaliy tavsiyalar ishlab chiqish, fan, ta'lim va ishlab chiqarish o'rtasida ilmiy-ijodiy hamkorlikni mustahkamlash anjumanning asosiy maqsadi bo'ldi.

Anjumanda soha mutaxassisleri: poytaxt teatrlari direktorlari va bosh rejissyorlari, televideniye rejissyorlari, professor-o'qituvchilar, tadqiqotchilar, magistr va iqtidorli talabalar bilan birgalikda Respublikadagi madaniyat va san'atga ixtisoslashgan ta'lim muassasalari direktorlari, shuningdek, pedagoglari faol ishtirok etdi.

Dastlab, anjumanni institut rektori, professor Nodirbek Sayfullayev kirish so'zi bilan ochib, Yangi O'zbekiston ma'naviy-madaniy qiyofasini shakllantirishda san'at, xususan estrada san'ati va ommaviy bayram, tomoshalarning tutgan o'rni, sohadagi yutuqlar va mavjud kamchiliklar, mazkur kamchiliklarni bartaraf etish yuzasidan ta'lim muassasalari hamda ijodiy ishlab chiqarish tashkilotlari bilan mustahkam integratsiyani yo'lga qo'yish masalalariga alohida e'tibor qaratdi va anjuman ishiga omad tiladi.

Konferensiya yalpi majlisida san'atshunoslik fanlari doktori, professor Muhabbat Tulyaxodjayevevaning "Zamonaviy estrada san'atining badiiy-estetik ahamiyati, televizion kliplardagi zamonaviy tendensiyalar, yutuq va kamchiliklar" mavzusidagi, professor Jahongir Mamatqosimovning zamonaviy ommaviy bayramlar rejissurasidagi innovatsion texnologiyalarning qo'llanilishi, soha bo'yicha kadrlar tayyorlash holati, fan, ta'lim va ishlab chiqarish o'rtasida mustahkam integratsiyani o'rnatish, kadrlar tayyorlashdagi mavjud muammolar va yechimlar" mavzusidagi, "OXUS Culture" tashkiloti rahbari Husniddin Atoning "Ommaviy bayram va tomoshalar hamda xalqaro festivallarni tashkil etish yuzasidan xorijiy tajribalar" mavzusidagi, professor v.b. Ramz Qodirovning "Aktyorlik san'ati ixtisosliklarida sahna nutqini o'qitish spetsifikasi,

xususan estrada aktyorlarining sahnaviy nutqini rivojlantirishning spetsifik asoslari” mavzusidagi, “Rapid Company” rahbari, rejissyor, klipmeyker Rauf Nabiyevning “Zamonaviy media olamda sun’iy intellektdan foydalanishning ahamiyati va bu borada O‘zbekiston sharoitida olib borilayotgan ishlar” mavzusidagi, Madaniyatshunoslik va nomoddiy madaniy meros ilmiy tadqiqot instituti katta ilmiy xodimi, sanatshunoslik fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD) Charos Raximova «Milliy o‘zlikni anglashda estrada san‘atining ahamiyati» mavzusidagi, shuningdek, San‘atshunoslik fanlari nomzodi, professor Lola G‘aniyevaning “Yangi davr estrada san‘atida ijrochilik masalalari” mavzusidagi ma‘ruzalari tinglandi.

Har bir ma‘ruza anjuman ishtirokchilari tomonidan qizg‘in qabul qilindi va bahs-munozaralarga boy bo‘ldi.

Shundan so‘ng anjuman “Estrada san‘ati dolzarb masalalari: an‘anaviylik va zamonaviylik kontekstida” va “Estrada san‘atida kadrlar tayyorlashning dolzarb masalalari” mavzularida ikki sho‘bada o‘z ishini davom ettirdi.

Unda sohaning rivojlanishiga qaratilgan 50 dan ortiq ma‘ruza tinglandi. “Estrada va ommaviy tomoshalar san‘ati” kafedrasi tomonidan olib borilayotgan o‘quv-metodik, ilmiy-tadqiqot, ma‘naviy-ma‘rifiy ishlar hamda xalqaro hamkorlikda amalga oshirilayotgan ishlar yuzasidan taqdimot bilan tanishtirildi.

Konferensiyaning ilmiy-amaliy jihatlarini e‘tiborga olib konferensiya ishtirokchilari uchun “Estrada aktyorligi san‘ati” 3-kurs talabalari ishtirokida professor Temur Rashidov tomonidan sahnalashtirilgan “Kuz” spektakli namoyish etildi. Spektakl muhokamasida uning yuksak badiiy saviyada va aynan estrada teatri spetsifikasiga mos sahnalashtirilganligi ta‘kidlandi.

Anjuman yakuniga ko‘ra: estrada san‘atining ijtimoiy hayotimizdagi madaniy ahamiyati tahlil qilinib, istiqbolli

rejalar ishlab chiqildi. Estrada aktyorlik san'ati va ommaviy bayram va tomoshalar rejissyorlarini tayyorlashning dolzarb masalalari tahlil qilindi. Ommaviy bayram va tomoshalarni tashkil etish va o'tkazish yuzasidan jahon tajribasi tahlil qilindi, professor-o'qituvchilarning rivojlangan davlatlarda malakasini oshirish yuzasidan taklif va tavsiyalar berildi. Tadbir so'ngida qatnashchilarga sertifikatlar topshirildi.















---

**Ozarbayjon Respublikasi  
Xalqaro Mug'om Markazida  
tajriba almashish, malaka  
oshirish va qo'shma konsert  
tashkillashtirildi**



O'zbekiston hamda Ozarbayjon o'rtasidagi do'stlik va madaniy hamkorlik aloqalarini mustahkamlash, ikki oliy ta'lim muassasasi o'rtasidagi hamkorlikni yanada rivojlantirish, ijodiy tajriba almashish, professor-o'qituvchilar va talabalar o'rtasida o'zaro aloqalarni kengaytirish bugungi kunda ikki davlat o'rtasida olib borilayotgan keng islohotlardan biri, desak xato bo'lmaydi.

□ Shu kunlarda O'zbekiston davlat san'at va madaniyat instituti rektori, professor Nodirbek Sayfullayev boshchiligida institut professor-o'qituvchilari Ozarbayjon Respublikasi

Xalqaro Mug'om Markazida tajriba almashish, malaka oshirish va qo'shma konsert tashkil qilish maqsadida ixizmat safarida bo'lib turishibdi.

□ Shunigdek, Xalq ijodiyoti fakulteti "Milliy qo'shiqchilik" hamda "Cholg'u ijrochiligi" kafedralari professor-

o'qituvchilari: O'zbekiston xalq xofizlari, professor Beknazar Dusmuradov va Soyibjon Niyozov, O'zbekistonda xizmat ko'rsatgan artist, professor Axmatjon Dadayev, dotsentlar: Yusuf Vahidov, Husniddin Xusanov, dotsent v.b. Qaxramon Turayev hamda o'qituvchi Javohir Turatovlardan tarkib topgan mazkur delegat a'zolari safarning dastlabki kunida Ozarbayjonda gilamdo'zlik va dunyodagi birinchi gilam muzeyida va Azorbayjon san'at muzeyida bo'lishdi.

U yerda Ozarbayjon gilamlarining bir qancha to'qish texnikalari va turli davrlarga oid ma'lumotlar bilan tanishishdi.

Shundan so'ng, Ozarbayjon Xalqaro Mug'om markaziga tashrif buyurib, markaz direktori Sahib Pashazade bilan uchrashuv o'tkazildi. Suhbat chog'ida markazi faoliyati hamda ijodiy konsertga yuqori darajada tayyorgarlik ko'rish masalalari muhokama qilindi.

Shunigdek institut professor-o'qituvchilari Nodirbek Sayfullayev boshchiligida Ozarbayjon davlat akademik filarmoniyasida bo'lishdi. U yerda ular filarmoniya qoshidagi mashhur ansambl faoliyati bilan tanishib, ijodiy tajriba almashuvlarda ishtirok etdilar.

□ Shundan so'ng filarmoniya sozanda va xonandalari ijrosida kuy qo'shiqlar tinglandi.

Professor Axmatjon Dadayev, dotsent Yusuf Vahidov, dotsent v.b. Qaxramon To'rayevlar ijrosida o'zbek xalq kuyi "Guldasta" asari ijro qilindi. Professor Soyibjon Niyozov esa Saidjon Kalonov musiqasi, Zohidjon Obidov she'ri bilan "Dutorim", Buxoro ijro yo'llaridan "Mavrigi" ashulasini ijro etdi.

Jarayon davomida kelgusida Ozarbayjon davlat akademik filarmoniyasi qoshidagi ansambl jamoasi bilan qo'shma konsertlar, ijodiy uchrashuvlar rejalashtirildi.

□ Kunning ikkinchi yarimida Nodirbek Sayfullayev hamda Sahib Pashazade boshchiligida Ozarbayjon Musiqa madaniyati davlat muzeyiga borildi.

Muzey direktori Alla Bayramova ushbu muzeyning qadimiy tarixga ega ekanligi va u yerdagi qadimiy musiqa cholg'ulari hamda Ozarbayjon san'atiga ulkan hissa qo'shgan san'at arboblari haqida ma'lumotlar berdi.

Ozarbayjon musiqa madaniyati davlat muzeyi 1967-yilda tashkil etilgan bo'lib, muzeyning asosiy maqsadi va vazifalari Ozarbayjon musiqasi tarixiga oid materiallarni to'plash, saqlash, tadqiq etish va targ'ib qilishdan iborat.

Muzey fondida 60 mingga yaqin eksponatlar jamlangan. Muzeyda jami 297 ta musiqa cholg'ulari saqlanmoqda. Ulardan 211 tasi ozarbayjoncha, 86 tasi boshqa xalqlarning cholg'ulari bo'lib, bundan tashqari 12 ta noyob musiqa qutilari saqlanib qolgan. Muzeyda Ozarbayjonning mashhur sozandalari cholg'ulari ham mavjud. Ular orasida ozarbayjon milliy cholg'ulari tar, kamancha, saz, daf, qo'sh nog'ora, zurna, ney, shuningdek, o'ziga xos xususiyatlari bilan ajralib turadigan boshqa cholg'ulari ham mavjud.

– Ozarbayjon professional musiqa san'ati asoschisi Uzeyir Hojibeyov, milliy professional vokal san'ati asoschisi atoqli bastakorlar Gara Garayev, Fikret Amirovlarning notalari, musiqachilarning shaxsiy buyumlari, plakatlar, dasturlar, fotosuratlar, tasviriy san'at namunalari, notalar, kitoblar va boshqalar o'rin olgan. Bularning barchasi Ozarbayjon milliy musiqa madaniyatining qimmatli namunalari, deydi muzey direktori Alla Bayramova.

Ta'kidlanishicha muzey qoshida 14 nafar sozandani birlashtirgan "Qadimiy milliy cholg'u asboblari" ansambli faoliyat ko'rsatmoqda. Mazkur ansamblning o'ziga xos jihati shundaki, sozandalar XIV asr musiqasi va Ozarbayjon xalq qo'shiqlarini o'rta asrlarda qo'llanilgan, asta-sekin unutilib, muzey xodimi, ansambl badiiy rahbari M.Karimov tomonidan qayta tiklangan cholg'ularda ijro etadi. Katta kuch va mahorat bilan yaratilgan chang, barbot, rud, chag'ona, santur, setar, Shirvon tanburi, rubob kabi cholg'ularini faqat ushbu muzey eksponatida ko'rish mumkin.

□ Tashrif davomida muzey tasarrufidagi “Qadimgi cholg‘u asboblari” ansambli tomonidan Ozarbayjon xalq kuylari hamda O‘zbekiston davlat san‘at va madaniyat instituti professor-o‘qituvchilari tomonidan o‘zbek xalq kuy va qo‘shiqlari ijro qilindi.

Ozarbayjon Musiqa madaniyati davlat muzeyi rahbariyati kelgusida bunday ijodiy uchrashuvlarni kengaytirish va O‘zbekistonda ham qo‘shma ijodiy konsertlarni tashkil qilish taklifini berdi.

Xabar berganimizdek, ayni damda O‘zbekiston davlat san‘at va madaniyat instituti rektori, professor Nodirbek Sayfullayev boshchiligidagi institut professor-o‘qituvchilari Ozarbayjon davlatida xizmat safarida bo‘lib turishibdi.

□ Dastlab, institut rektori, professor Nodirbek Sayfullayev boshchiligida institut professor-o‘qituvchilari Ozarbayjon davlat madaniyat va san‘at universitetiga tashrif buyurishdi. Universitet rektori, professor Jeyram Mahmudova Nodirbek Sayfullayevni universitet faoliyati bilan yaqindan tanishtirar ekan, bu yerda ta‘lim jarayonining yuqori saviyada yo‘lga qo‘yilgani, talabalarning ijodiy muhitda o‘qish va o‘z mahoratini oshirishlari uchun etarlicha sharoitlar yaratilgani to‘g‘risida ma‘lumot berib o‘tdi.

□Shundan so‘ng ikki oliy ta‘lim muassasasi raxbarlarining rasmiy uchrashuvi bo‘lib o‘tdi.

Uchrashuv chog‘ida professorlar Nodirbek Sayfullayev va Jeyran Mahmudova bir-birlariga samimiy tilaklar va ezgu so‘zlarni bildirib, ikki oliy ta‘lim muassasasi o‘rtasidagi do‘stona hamkorlik aloqalarini yanada mustahkamlashga intilishlarini ta‘kidladilar. Suxbat davomida kelgusi rejalar xaqida so‘z borar ekan, shu yilning may oyida imzolangan memorandumga asosan bajarilishi lozim bo‘lgan ishlar xususida gapirildi. Nodirbek Sayfullayev univesitet raxbariyatiga avvalo o‘zining chuqur minnatdorchiligini bildirar ekan, institutning Ozarbayjonga bo‘lgan tashrifini mazkur kelishuvda belgilangan

vazifalarning bir amaliy ifodasi sifatida ta'rifladi.

Shuningdek, u o'z so'zida Ozarbayjon va O'zbekiston do'stlik-birodarlik rishtalari umumiy azaliy qadriyatlarga ega ekanligi, keyingi yillarda Hurmatli Prezidentimiz Shavkat Mirziyoyev tashabbusli bilan barcha sohalarda bo'lgani kabi madaniyat, san'at sohasida ham islohotlar izchil amalga oshayotgani, madaniy diplomatiyaning rivojlanayotgani va bevosita Ozarbayjon bilan ham madaniy aloqalar amalga oshirilayotganini ta'kidladi.

□ Aytib o'tilganidek, ikki oliy ta'lim o'rtasida imzolangan memorandumda bajarilishi lozim bo'lgan madaniy tadbirlar kelishib olingan bo'lib, institut vakillarining universitetga bo'lgan tashrifi mazkur ishlarning amaliy ifodasi bo'ldi.

Ma'lumot uchun: Ma'naviy-ma'rifiy, ijodiy tadbirlar:

1.1 Ikki oliy ta'lim muassasasining "Musiqali dramatik teatr san'ati" yo'nalishlari hamkorligida qo'shma spektakl sahnalashtirish, "Cholgu ijrochiligi" yo'nalishlari hamkorligida qo'shma konsert namoyish etish, Professor-o'qituvchilar va talabalar almashinuvi (onlayn va oflayn shaklda amalga oshirish)

- Mahorat darslarini tashkil etish (onlayn tarzda o'tkaziladi).
- Ta'lim resurslari va o'quv ma'lumotlari almashinuvi (onlayn va masofaviy shaklda yo'lga qo'yiladi).
- Ikki oliy ta'lim muassasasining aktyorlik, rejissyorlik, san'atshunoslik hamda madaniyatshunoslik yo'nalishlari bo'yicha 144 soatlik o'qituvchilar xorijiy malaka oshirish dasturlari yo'lga qo'yiladi.

III. Ilmiy ishlar bo'yicha takliflar

- O'zDSMI hamda ODMSU ilmiy nashrlarida ("O'zDSMI xabarlarini" va "Madaniyat olami" jurnallari) professor-o'qituvchilarning maqolalari chop etiladi.
- Ilmiy ishlar himoyalari ikki oliy ta'lim muassasasi mutaxassislaridan taqrizlar olinadi.

- San'at va madaniyat sohasidagi yetuk mutaxassislar ikki oliy ta'lim muassasasi ilmiy nashrlarining ("O'zDSMI xabarlarini" va "Madaniyat olami" jurnallari) tahrir hay'atiga a'zolikka kiritiladi.
- Ikki oliy ta'lim muassasasida o'tkaziladigan xalqaro ilmiy konferensiyalarda mutaxassislarning ishtiroki ta'minlanadi (onlayn va oflayn shaklda).
- Har ikki tomonning yetuk soha mutaxassislari oliy ta'lim muassasalari huzuridagi ixtisoslashgan himoya kengashlari a'ziligiga jalb qilinadi.

Uchrashuv g'oyat qizg'in va samimiy ruhda bo'lib o'tdi. Ikki oliy ta'lim muassasalari rahbarlari bir-birlariga esdalik sovg'alarini topshirdilar.

□ Shundan so'ng professor Nodirbek Sayfullayev bevosita Dramatik teatr aktyorligi yo'nalishining 3-bosqich talabalarining aktyorlik mahorati dars jarayonlarini kuzatdi hamda kino dramaturgiyasi va sahna nutqi fanlaridan olib borilayotgan mashg'ulotlarda ishtirok etdi.

Shuningdek, institutimiz professor-o'qituvchilari maqom ijrochiligi yo'nalishi bo'yicha o'tkazilgan master-klass jarayonlarida qatnashdilar. Mahorat darslari davomida turli kuy va qo'shiqlar ijro etildi.

O'zbekiston va Ozarbayjon xalq artisti, Ozarbayjon davlat madaniyat va san'at universiteti professori Gulyanag Mamedova ham ushbu kuy va qo'shiqlarga jo'r bo'lib, o'z mahoratini namoyish etdi.

Talabalar tomonidan an'anaviy xonandalik bo'yicha berilgan savollarga batafsil javoblar berildi.

□ Aytish kerakki ushbu mahorat darslari ko'tarinki kayfiyatda tashkil etildi.

□ Kunning ikkinchi yarmida O'zbekiston davlat san'at va madaniyat instituti vakillari Ozarbayjon milliy

konservatoriyasida bo'ldilar.

□ Konservatoriya rektori, professor Kamila Husayn qizi Dadash-zoda mehmonlarni samimiy kutib olib, mazkur ta'lim muassasasida yaratilgan shart-sharoitlar, mavjud ta'lim yo'nalishlari hamda o'quv jarayonining o'ziga xos jihatlari haqida batafsil ma'lumot berdi.

□ Uning ta'kidlashicha, Ozarbayjon milliy konservatoriyasida "Ijrochilik" hamda "Musiqqa tarixi va nazariyasi" fakultetlari faoliyat yuritadi. Fakultetlar tarkibida "Xalq cholg'ulari", "Mug'omchi", "Mug'om cholg'ulari", "Gumanitar fanlar", "Fortepiano", "Mug'om xonandaligi", "Milliy vokal", "Etnomusiqashunoslik", "Dirijorlik", "Musiqqa nazariyasi va tarixi", "Ommaviy musiqqa va jaz ijrosi" kabi qator kafedralar mavjud.

□ Tashrif doirasida konservatoriyaning konsert zalida professor-o'qituvchilar va talabalar uchun mahorat darslari tashkil etildi. Dastlab konservatoriya talabalari ijrosida milliy cholg'ularda kuylar va mug'omlar ijro etildi.

□ Shundan so'ng, O'zbekiston davlat san'at va madaniyat instituti professor-o'qituvchilari tomonidan kuy va qo'shiqlar taqdim etildi. Tadbir yakunida esa ikki ta'lim muassasasi xonandalari birgalikda qo'shiq ijro etishdi.

□ Mazkur mahorat darslari Ozarbayjon milliy konservatoriyasi professor-o'qituvchilari tomonidan yuksak baholandi. Professor Kamila Dadash-zoda kelgusida bunday ijodiy hamkorliklarni yanada kengaytirish zarurligini mamnuniyat bilan ta'kidladi.

O'zbekiston davlat san'at va madaniyat instituti rektori, professor Nodirbek Sayfullayev boshchiligidagi institut professor-o'qituvchilari Ozarbayjon Respublikasining Boku shahridagi Xalqaro Mug'om markaziga tashrif buyurishdi.

□ Dastlab, Nodirbek Sayfullayev Mug'om markazi rahbari Sahib Pashazade bilan uchrashdi. Uchrashuv davomida ikki mamlakat

o'rtasidagi madaniy aloqalarni yanada mustahkamlash, ijodiy hamkorlikni kengaytirish hamda qo'shma loyihalarni yo'lga qo'yish masalalari muhokama qilindi.

□ Suhbat chog'ida tomonlar kelgusida mahorat darslari, konsert dasturlari, ilmiy-amaliy seminarlar kabi qo'shma tadbirlarni o'tkazish bo'yicha o'zaro kelishuvga erishdilar.

□ Mug'om markazida tashkil etilgan qo'shma konsert dasturining ochilish qismida Nodirbek Sayfullayevga so'z berildi.

U o'z nutqida shunday dedi:

– O'zbekiston va Ozarbayjon o'rtasidagi madaniy aloqalar uzoq tarixga ega bo'lib, bugungi kunda ham izchil davom etmoqda. Ikki davlat o'rtasidagi do'stlik va birodarlik rishtalari nafaqat siyosiy yoki iqtisodiy sohada, balki san'at va madaniyat yo'nalishida ham mustahkamlanib bormoqda. Bugungi qo'shma konsert – ana shu do'stlik aloqalarining amaliy ifodasidir.

– Bizni umumiy qadriyatlar va mushtarak madaniy ildizlar bog'lab turadi, Shunday ekan, bu aloqalarni bundan buyon ham yanada kengaytirish, ijodiy hamkorlikni yangi bosqichga olib chiqish bizning umumiy maqsadimizdir,- deydi u.

□ N.Sayfullayev Mug'om markazi direktori Sahib Pashazadani O'zbekiston davlat san'at va madaniyat institutining faxriy professori, deya e'tirof etar ekan, institutda ham shunday tadbirlarni o'tkazish imkonini beruvchi o'quv teatri va unda yaratilgan sharoitlar haqida so'zlab o'tdi.

□ Shuningdek, u Ozarbayjon madaniyat vakillari uchun O'zbekiston davlat san'at va madaniyat instituti eshiklari doimo ochiq ekanligini mamnuniyat bilan ta'kidladi. Uchrashuv yakunida tomonlar bir-birlariga esdalik sovg'alarini topshirdilar.

□ Sundan so'ng institutimiz professor-o'qituvchari hamda Milliy Mug'om markazi honandalari va sozandalari ishtirokidagi

qo'shma konsert dasturui namoyish etildi.

G'oyat ko'tarinki kayfiyatda va yuqori saviyada tashkil etilgan qo'shma konsert dasturida milliy kuy-qo'shiqlar, mug'om yo'nalishidagi asarlar hamda ikki xalq madaniyatini uyg'unlashtiruvchi musiqiy chiqishlar ijro etildi.

□ Dastur davomida O'zbekistondan tashrif buyurgan san'atkorlar – O'zbekiston xalq hofizi, professor Beknazar Dusmurodov, O'zbekistonda xizmat ko'rsatgan artist, professor Ahmatjon Dadaev, O'zbekiston xalq hofizi, professor Soyibjon Niyozov, dotsentlar Qahramon To'rayev, Yusuf Vahidov va Husniddin Husanovlar o'z chiqishlarini taqdim etdilar.

□ Ayniqsa, ikki davlat san'atkorlari tomonidan ijro etilganligi kuy-qoshiqlar tadbirga o'zgacha rux baxsh etdi. Konsert davomida o'zbek va ozarbayjon musiqasining uyg'un ohanglari, san'atkorlarning mahorati tomoshabinlarda katta taassurot qoldirdi.

□ Har bir chiqish milliy ruh, do'stlik va san'atning yagona tili bilan sug'orilgan bo'lib, o'tirganlarni chuqur hayajonga soldi.

□ Konsert dasturi shu qadar qizg'in va ko'tarinki kayfiyatda o'tdiki, tomoshabinlar o'z hayrat va quvonchlarini yashira olmadilar – ular san'atkorlarning har bir chiqishlarini uzoq davom etgan olqishlar bilan qarshi oldilar.

□ Tadbir so'ngida ishtirokchilar bir-birlarini samimiy tabriklab, esdalik suratga tushdilar.

□ Shundan so'ng O'zbekiston davlat san'at va madaniyat instituti vakillari Xalqaro Mug'om markazi faoliyati bilan yaqindan tanishdilar. Tashrif davomida ular markazning zamonaviy texnik jihozlari, sahna imkoniyatlari, ovoz va yorug'lik tizimlari, shuningdek, milliy musiqa merosini asrash va targ'ib etish yo'nalishidagi ish jarayonlari bilan tanishib chiqishdi.

□ Markaz direktori Sahib Pashazade mehmonlarga markazning tarixi, uning xalqaro miqyosdagi ahamiyati hamda Ozarbayjonda mug'om san'atini rivojlantirish yo'lida amalga oshirilayotgan keng ko'lamli loyihalar haqida batafsil ma'lumot berdi.

□ Nodirbek Sayfullayev boshchilidagi institut vakillari markazda yaratilgan sharoitlar, ayniqsa yosh iste'dodlarni qo'llab-quvvatlash, ularning ijodini targ'ib qilish borasidagi tajribani yuqori baholab, kelgusida bu borada o'zaro hamkorlik aloqalarini yanada kengaytirish istagini bildirdilar.

---

## **Nodirbek Sayfullayev Xalqaro Mug'om markaziga tashrif buyurishdi.**

□ Bugun O'zbekiston davlat san'at va madaniyat instituti rektori, professor Nodirbek Sayfullayev boshchiligidagi institut professor-o'qituvchasi Ozarbayjon Respublikasining Boku shahridagi Xalqaro Mug'om markaziga tashrif buyurishdi.

□ Dastlab, Nodirbek Sayfullayev Mug'om markazi rahbari Sahib Pashazade bilan uchrashdi. Uchrashuv davomida ikki mamlakat o'rtasidagi madaniy aloqalarni yanada mustahkamlash, ijodiy hamkorlikni kengaytirish hamda qo'shma loyihalarni yo'lga qo'yish masalalari muhokama qilindi.

□ Suhbat chog'ida tomonlar kelgusida mahorat darslari, konsert dasturlari, ilmiy-amaliy seminarlar kabi qo'shma tadbirlarni o'tkazish bo'yicha o'zaro kelishuvga erishdilar.

□ Mug'om markazida tashkil etilgan qo'shma konsert dasturining

ochilish qismida Nodirbek Sayfullayevga soʻz berildi.

U oʻz nutqida shunday dedi:

– Oʻzbekiston va Ozarbayjon oʻrtasidagi madaniy aloqalar uzoq tarixga ega boʻlib, bugungi kunda ham izchil davom etmoqda. Ikki davlat oʻrtasidagi doʻstlik va birodarlik rishtalari nafaqat siyosiy yoki iqtisodiy sohada, balki sanʼat va madaniyat yoʻnalishida ham mustahkamlanib bormoqda. Bugungi qoʻshma konsert – ana shu doʻstlik aloqalarining amaliy ifodasidir.

– Bizni umumiy qadriyatlar va mushtarak madaniy ildizlar bogʻlab turadi, Shunday ekan, bu aloqalarni bundan buyon ham yanada kengaytirish, ijodiy hamkorlikni yangi bosqichga olib chiqish bizning umumiy maqsadimizdir,- deydi u.

□ N.Sayfullayev Mugʻom markazi direktori Sahib Pashazadani Oʻzbekiston davlat sanʼat va madaniyat institutining faxriy professori, deya eʼtirof etar ekan, institutda ham shunday tadbirlarni oʻtkazish imkonini beruvchi oʻquv teatri va unda yaratilgan sharoitlar haqida soʻzlab oʻtdi.

□ Shuningdek, u Ozarbayjon madaniyat vakillari uchun Oʻzbekiston davlat sanʼat va madaniyat instituti eshiklari doimo ochiq ekanligini mamnuniyat bilan taʼkidladi. Uchrashuv yakunida tomonlar bir-birlariga esdalik sovgʻalarini topshirdilar.

□ Sundan soʻng institutimiz professor-oʻqituvchari hamda Milliy Mugʻom markazi honandalari va sozandalari ishtirokidagi qoʻshma konsert dasturui namoyish etildi.





## **0'zbekiston hamda Ozarbayjon o'rtasidagi do'stlik va madaniy hamkorlik**

□ 0'zbekiston hamda Ozarbayjon o'rtasidagi do'stlik va madaniy hamkorlik aloqalarini mustahkamlash, ikki oliy ta'lim muassasasi o'rtasidagi hamkorlikni yanada rivojlantirish, ijodiy tajriba almashish, professor-o'qituvchilar va talabalar o'rtasida o'zaro aloqalarni kengaytirish bugungi kunda ikki davlat o'rtasida olib borilayotgan keng islohotlardan biri, desak xato bo'lmaydi.

□ Shu kunlarda O'zbekiston davlat san'at va madaniyat instituti rektori, professor Nodirbek Sayfullayev boshchiligida institut professor-o'qituvchilari Ozarbayjon Respublikasi

Xalqaro Mug'om Markazida tajriba almashish, malaka oshirish va qo'shma konsert tashkil qilish maqsadida ixizmat safarida bo'lib turishibdi.

□ Shunigdek, Xalq ijodiyoti fakulteti "Milliy qo'shiqchilik" hamda "Cholg'u ijrochiligi" kafedralari professor-o'qituvchilari: O'zbekiston xalq xofizlari, professor Beknazar Dusmuradov va Soyibjon Niyozov, O'zbekistonda xizmat ko'rsatgan artist, professor Axmatjon Dadayev, dotsentlar: Yusuf Vahidov, Husniddin Xusanov, dotsent v.b. Qaxramon Turayev hamda o'qituvchi Javohir Turatovlardan tarkib topgan mazkur delegat a'zolari safarning dastlabki kunida Ozarbayjonda gilamdo'zlik va dunyodagi birinchi gilam muzeyida va Azorbayjon san'at muzeyida bo'lishdi.

U yerda Ozarbayjon gilamlarining bir qancha to'qish texnikalari va turli davrlarga oid ma'lumotlar bilan tanishishdi.

Shundan so'ng, Ozarbayjon Xalqaro Mug'om markaziga tashrif buyurib, markaz direktori Sahib Pashazade bilan uchrashuv o'tkazildi. Suhbat chog'ida markazi faoliyati hamda ijodiy konsertga yuqori darajada tayyorgarlik ko'rish masalalari muhokama qilindi.



By UNESCO  
AZERBAIJANI  
MUGAM  
has been proclaimed  
a Masterpiece  
of the Oral and  
Intangible Heritage  
of Humanity

AZƏRBAYCAN  
MUGAMI  
YUNESKO tərəfindən  
bəşəriyyətin əfsanəvi və  
qeyri-maddi irsində  
qeyd edilmişdir

By UNESCO  
THE ART OF  
AZERBAIJANI  
MUGAM  
has been proclaimed  
a Masterpiece  
of the Oral and  
Intangible Heritage  
of Humanity

AZERBAIJAN  
MUGAM  
BY UNESCO  
has been proclaimed  
a Masterpiece  
of the Oral and  
Intangible Heritage  
of Humanity







ilk musiqi tchallmi uqar-  
leqla Sushada mahir xananda  
ve tarzanlar arasinda alm-  
gam. Merim saatin onlara  
cax xog gahidi. Onlar meza  
muqam ve tasnifleri da et-  
mak sanati cnyatmishdilar.

Üzeyir Hacıbəyov

ÜZEYİR HACIBEYOV



Üzeyir Hacıbəyov v ruz  
seminaryo kasi yotnasmasinden  
«... Qebildir, roktagarından  
daha aspuvahlidir, gukl qakmayi ve  
kitab oxumagı sever, kbnulu olaraq  
tikik (tatar) dilinden rus diline ve  
vskisu meqalesler tarcıma edir.  
Xandryolca sandir, ayizdir, iboyu  
axlaq 5 (ala)».

Oni semiriyasi  
sinf ruzberi







